
PENSIYA TAʼMINOTIGA DOIR YANGILIKLAR

Savol: Pensiya taʼminotidagi eng soʻnggi oʻzgarishlar va 19.09.2022 yildagi OʻRQ-791-Qonuniga asosan 2023 yil 1 yanvardan kimlarning pensiyalari oshiriladi.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI 2022 YIL 19 SentyabrDAGI OʻRQ-791-SONLI «FUQAROLARNING DAVLAT PENSIYA TAʼMINOTI TOʻGʻRISIDA»GI OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA OʻZGARTISHLAR KIRITISH HAQIDA-GI QARORI MAZMUN MOHIYATI HAQIDA BYudJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMGʻARMASI FARGʻONA SHAHAR BOʻLIMI BOSHIGʻI OʻRINBOSARI MAXSUDALI TOPVOLDIEV USMONALIEVICH QUYIDAGICHa JAVOB OLDIK:

Mamlakatimizda pensionerlarni ijtimoiy koʻllab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, qariyalar va keksa yoshdagilarga har tomonlama gʻamxoʻrlik qilish, fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti tizimini takomillashtirish va sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda inson qadrini ulugʻlashga yoʻnaltirilgan ijtimoiy himoya siyosati doirasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlar doirasida pensiya tizimini takomillashtirishga, pensiyalar miqdorini muntazam oshirib borishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, fuqarolarning ovoragarchiligini bartaraf etish, byurokratik toʻsiqlarni qisqartirish, shuningdek qonunchilik bazasini takomillashtirish maqsadida fuqaroning 2005 yil 1 yanvardan avvalgi davr uchun ish staji shaxsning mehnat daftarchasidagi mavjud yozuvlar asosida, hech qanday tasdiqlovchi hujjatlar talab etilmasdan belgilanishi, pensiya va nafaqalar fuqaroning xohishiga koʻra roʻyxatga olingan doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi boʻyicha tayinlanishi va toʻlanishi, uch yil va undan avval tayinlangan, qayta hisoblangan pensiyalarning tekshirilishiga yoʻl qoʻyilmasligi hamda ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash taʼtilida boʻlish vaqtidagi qoʻshib hisoblanadigan ish staji davri ikki barobarga, yaʼni uch yildan olti yilga oshirilganligi pensiya tizimi islohotidagi muhim qadamlar boʻldi.

Shu bilan birga, Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat pensiya taʼminoti tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning pensiya miqdorlari mamlakatning iqtisodiy koʻrsatkichlariga muvofiq izchil oshirib borilishini taʼminlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu Qonunda yoshga doir, nogironlik hamda boquvchisini yoʻqotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan oʻrtacha oylik ish haqining eng koʻp miqdorini pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining oʻn barobaridan oʻn ikki barobarigacha oshirish nazarda tutilmoqda.

Qonunda taklif etilayotgan yangi normalar pensionerlarning moddiy farovonligini yanada oshirishga va ijtimoiy adolat printsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2022-10-27 15:31:12